

MUZEYLARDA TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATGA EGA BO'LGAN FOTO KOLLEKSIYALARNI SAQLASH VA KONSERVATSIYA QILISH.

Elyorbek Komilov

*Maqola Urganch shaxridagi O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyi
fondlar bosh saqlovchisi tomonidan tayyorlandi.*

KIRISH

Muzeylar san'at va tarixiy qiymatga ega bo'lgan asarlarni saqlash, namoyish etish va o'rganish uchun muhim joylardir. Foto kolleksiyalar esa, o'z navbatida, ko'plab madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni o'z ichiga oladi, ular tarix, madaniyat va san'atning noyob guvohlari bo'lib, kelajak avlodlar uchun ularning yaxlitligini saqlash konservatorlar va muzey mutaxassislarining asosiy vazifasidir.

Foto kolleksiyaning ahamiyati

Foto kolleksiyalar, tarixiy voqealarni va san'atni hujjatlashtiruvchi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat estetik, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhimdir.

Foto kolleksiyalarni saqlash turlari

Fotosuratlarini saqlash asosan ikki turi mavjud, bulardan birinchisi Fizik saqlash yani jismonan but saqlash. Ikkinchisi Raqamli nusxa qilish yani skanerlash elektron saqlash turi xisoblanadi.

Fizik saqlashda asosan 5 ta tamoyilga e'tibor qaratish shart va zarur.

1. Mikro-iqlim va tabiiy yorug'likni nazorat qilish (Eng muhim omil)

Fotosuratning emulsiya qatlami (tasvir turgan joy) harorat va namlik o'zgarishiga juda sezgir.

Harorat: Iloji boricha past bo'lishi kerak. Odatda +14°C dan +18°C gacha. Past harorat kimyoviy yemirilish (sarg'ayish, rang o'chishi) tezligini pasaytiradi.

Nisbiy namlik 30% dan 40% gacha bo'lishi ideal.

Namlik 60% dan oshsa — mog'or bosadi va suratlar bir-biriga yopishib qoladi.

Namlik 25% dan tushsa — surat qog'ozi mo'rt bo'lib, sinuvchan bo'lib qoladi.

Foto kolleksiyalarni saqlash xonalari doimo qorong'i bo'lishi kerak. Ultrabinafsha (UV) nur va ko'rinadigan yorug'lik: Fotografik materiallar, ayniqsa rangli suratlar va tarixiy bosmalar yorug'lik ta'sirida o'chib ketishi va sariq tusga o'zgarishiga olib keladi.

Muzeylarda foto kolleksiyalarning holatini muntazam ravishda tekshirish va baholash, ularning saqlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Eng noyob va tarixiy fotosuratlarini har olti oyda bir marta yoki har ikki yilda bir marta (bu jarayon muzeylarning texnik holatidan kelib chiqib farq qilishi mumkin) monitoring qilinadi.

2. Maxsus qadoqlash (Idishlar va konvertlar)

Muzeyda fotosuratlar hech qachon ochiq holatda turmaydi. Har bir fotosurat alohida himoya qatlamiga ega bo'lishi shart: yani har-bir fotosurat orasiga maxsus kimyoviy eritmalarda ishlov berilmagan kislotasiz qog'oz qo'yiladi.

Kislotasiz qog'oz (Acid-free): Oddiy qog'oz yoki karton tarkibida lignin va kislota bo'ladi, bu esa suratni vaqt o'tishi bilan kuydiradi (jigarrang dog'lar tushiradi). Muzeylarda maxsus pH-neytral qog'ozlardan tayyorlangan konvertlar ishlatiladi.

Poliester (Mylar) cho'ntaklar: Shaffof va kimyoviy neytral plastik plyonkalar. Bu tadqiqotchilarga suratni qo'l bilan ushlamasdan ko'rish imkonini beradi.

PAT-test (Photographic Activity Test): Muзей ishlatadigan barcha materiallar (yelim, qog'oz, quti) PAT-testidan o'tgan bo'lishi shart. Bu materialning fotosurat bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmasligini kafolatlaydi.



1 – rasm arxiv quti

Bu kichik hajmdagi fotolar uchun uchun



2- rasm

katta formatdagi fotosuratlarini saqlash



3-rasm

Maxsus konvert va fayllar

3. Jismoniy joylashtirish tartibi

Fotosuratlarining o'lchamiga qarab ularni joylashtirishning o'z qoidalari bor:

Gorizontal saqlash: Katta o'lchamli suratlar va albomlar maxsus metall shkaflarda (drayerlarda) tekis yotqizilgan holda saqlanadi. Bu qog'ozning o'z og'irligi ostida egilib qolishini oldini oladi. Bunda maxsus shkaflarning tortmalari yoki arxiv qutilarning o'lchami fotosurat o'lchamidan uch – besh santimetr gacha katta bo'lishi kerak.



4 – rasm

maxsus gorizontal tortmali temir shkaf

Vertikal saqlash: Kichik va o'rta hajmdagi suratlar qattiq karton qutilarga (boxes) tik holatda, bir-birini qisib qo'ymaydigan darajada joylashtiriladi.

Agar saqlash jarayonida nam tortgan, mog'orlagan va sarg'aygan fotosuratlar borligi aniqlansa ularni arxiv qutida yoki gorizontall tortmali shkafda (o'lchamiga qarab) aloxida qilib saqlanadi.



5 - rasm



6 - rasm

Joylashtirish tartiblari

4. Gigiyena va ishlov berish (Handling)

Jismoniy saqlashda inson omili eng katta xavfdir.

Oq paxta qo'lqoplar: Inson terisidagi yog' va tuzlar emulsiya qatlamiga tushsa, oradan 10-20 yil o'tib o'sha joyda barmoq izi shaklidagi qora dog'lar paydo bo'ladi. Ularni o'chirib bo'lmaydi.

Belgilash (Markirovka): Suratning orqa tarafiga kim tomonidan qachon yaratilganligi (fotoga tushirilganligi) material texnikasi faqat yumshoq grafit qalam (2B yoki undan yumshoq) bilan yoziladi. Sharikli ruchka yoki flomaster ishlatish qat'iy man etiladi, bu siyohning foto qog'ozning tasvir tushurilgan tomoniga o'tib ketmasligi maqsadida qilinadi.

5. Ko'rgazma ekspozitsiyaga qo'yish tartibi.

Muzeylarda foto kolleksiyalarni ko'rgazmaga qo'yishda bir nechta bosqichlar mavjud. Bunda ekspozitsiya zallarida oynadan tushayotgan tabiiy yorug'likni va ultrabinafsha nurlarini to'sish maqsadida maxsus plyonka yopishtirish kerak. Agar kun judayam yorug'li bo'lsa kunning ikkinchi yarmida quyosh botishidan oldingni paytda ko'rgazmani tamoshabinlar uchun ochish tafsiya etiladi. Bu jarayon quyoshli kunlar ko'p bo'ladigan paytlarda qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar muzeyda juda noyob va tarixiy fotosuratlardan ko'rgazma tashkil qilish tog'ri kelib qolsa, bunda fotosuratdan bosma printerda nusxa ko'chirib olingan reproduksiyasi ko'rgazmaga qo'yiladi.

Raqamli nusxa qilish yani skanerlash elektron saqlash turi

Raqamlashtirish (Elektron nusxa yaratish)

Bu jarayon eksponatni kelajak avlodga bezarar yetkazish va undan tadqiqot yo'lida foydalanish uchun qilinadi:

Skanerlash texnikasi: Professional planshetli skanerlar ishlatiladi. Bunda tasvirning aniqligi kamida 600-1200 DPI (nuqtalar zichligi) bo'lishi shart. Bu tasvirni kelajakda katta hajmda chop etish imkonini beradi.

Fayl formati: Arxivlash uchun siqilmagan, ma'lumotlarni yo'qotmaydigan TIFF formati tanlanadi. Kundalik foydalanish va internetga joylash uchun esa undan JPEG nusxalari olinadi.

Tavsiflash (Metama'lumotlar): Raqamli nusxaga suratning kim tomonidan olingani, o'lchami, material texnikasi, yaratilish sanasi, skanerlangan vaqti, joyi hamda saqlanish holati kabi ma'lumotlar biriktiriladi.

Fayl Formatlari: Arxitektura maqsadlari uchun TIFF kabi yuqori sifatli, ochiq va siqilmagan formatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Zaxiralash (Backup): Ma'lumotlarni yo'qotishning oldini olish uchun kamida uchta nusxani 3-2-1 qoidasi: 3 nusxa, 2 xil media turida, bulutli google disklarda, 1 nusxasi ofsayt qattiq disklar shunga o'xshash vositalar bilan saqlash lozim.